

IQBOL MIRZO SHE'RLARIDA BADIY AKTUALLASHGAN VOSITALARNING LINGVOPOETIK IMKONIYATLARI

Inogamova Nargiza Shavkatovna

O'zMU, Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrası katta o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11237304>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Iqbol Mirzoning she'rlarida badiiy aktuallashgan vositalarning lingvopoetik imkoniyatlari o'rganiladi. Ijodiy kontekst va tarixiy asos, vositalarning roli, lingvopoetik usullar va tematik-g'oyaviy asoslar tahlil qilinadi. Iqbol Mirzoning she'riyatida metafora, simbolizm va allegoriya kabi vositalar keng qo'llanilib, ular orqali milliy qadriyatlar va umuminsoniy mavzular ifodalanadi. Fonetik, leksik va sintaktik usullar yordamida she'rlarning emotsional ta'siri kuchaytiriladi. She'rlarning tuzilishi, ma'nosi va boshqa adabiyotlar bilan bog'liqligi struktural, semantik va intertekstual tahlil usullari yordamida tadqiq etiladi. Ushbu maqola Iqbol Mirzo she'riyatining lingvopoetik boyligini ochib berishga qaratilgan bo'lib, milliy adabiyotimizni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.*

***Kalit so'zlar:** Iqbol Mirzoning she'rlari, lingvistik, intertekstual tahlil usullari, lingvopoetika, sintaktik birliklar.*

LINGUOPOETIC POSSIBILITIES OF ARTISTIC ACTUALIZED MEANS IN THE POEMS OF IQBAL MIRZA

***Abstract.** This article explores the linguopoetic possibilities of artistically actualized tools in Iqbal Mirza's poems. The creative context and historical basis, the role of tools, linguopoetic methods and thematic-ideological foundations are analyzed. In Iqbal Mirza's poetry, tools such as metaphor, symbolism and allegory are widely used to express national values and universal themes. Using phonetic, lexical and syntactic methods, the emotional impact of poems is enhanced. The structure, meaning and relationship of the poems with other literature are studied using the methods of structural, semantic and intertextual analysis. This article is aimed at revealing the linguopoetic richness of Iqbal Mirza's poetry, which will help to better understand our national literature.*

***Key words:** Iqbal Mirza's poems, linguistic, intertextual analysis methods, linguopoetics, syntactic units.*

ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ СРЕДСТВ В СТИХИЯХ ИКБОЛА МИРЗЫ

***Аннотация.** В данной статье исследуются лингвопоэтические возможности художественно реализованных средств в стихотворениях Икбала Мирзы. Анализируются творческий контекст и историческая основа, роль инструментов, лингвопоэтических*

методов и тематико-идеологических основ. В поэзии Икбала Мирзы широко используются такие инструменты, как метафора, символизм и аллегория для выражения национальных ценностей и общечеловеческих тем. С помощью фонетических, лексических и синтаксических методов усиливается эмоциональное воздействие стихотворений. Структура, смысл и связь стихотворений с другой литературой изучаются с помощью методов структурного, семантического и интертекстуального анализа. Целью данной статьи является раскрытие лингвопоэтического богатства поэзии Икбала Мирзы, которое поможет лучше понять нашу национальную литературу.

Ключевые слова: стихи Икбала Мирзы, лингвистика, методы интертекстуального анализа, лингвопоэтика, синтаксические единицы.

Kirish qism (Introduction). Hech kimga sir emaski, yillar mobaynida badiiy asar tilini lingvopoetik o'rganish ko'pgina ilmiy tadqiqotlar markazida bo'lib kelmoqda. Negaki til va adabiyot hamisha bir-birini to'ldirib, uyg'unlikda taraqqiy etib kelgan. Shu bois, bunday tadqiqotlar asosida tilshunoslarimiz tomonidan badiiy matnni til va adabiyot nuqtayi nazaridan tadqiq etishda qo'llaniladigan usullar ishlab chiqilmoqda. Badiiy matnning lingvopoetik tahlili shu tilning poetik imkoniyatlarini ochishga, muallif tomonidan til xazinasidagi mavjud til boyliklaridan foydalanish mahoratiga baho berishga xizmat qiladi. O'zbek tilshunosligida lingvopoetikaning rivojlanishi va ommalashishida X.Doniyorov, S.Mirzayev, Q.Samadov, I.Qo'chqortoyev, N.Mahmudov, M.Yo'ldoshev kabi olimlarning xizmatlari katta. Ular badiiy asar tilining stilistik, badiiy-estetik jihatlarini, shoir yoki yozuvchining badiiy asarda so'z tanlash mahorati, uning o'ziga xos tili, umumxalq tiliga bo'lgan munosabati, yangi so'z va iboralar yaratish kabi omillar nuqtayi nazaridan tadqiq qildilar.

Iqbol Mirzo she'riyatining lingvopoetik jihatdan tahlil qilinishi, xususan, uning badiiy aktuallashtirilgan leksik qoliplardan foydalanish mahorati o'ziga xos ekanligi shoirning haqiqiy uslubni yarata olganligidan dalolatdir. Badiiy aktuallashtirilgan leksik vositalar badiiy asar tilini boyitishda, ifodaning obrazlilikini ta'minlashda, ta'sirchanligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi shoirning ijod namunalarida o'z aksini topgan. Iqbol Mirzo she'rlarining o'quvchi qalbidan chuqur o'rin olishi, uning ruhiyatiga, hissiyotiga kuchli ta'sir qilishining sababi ham mana shunda.

Demak, Iqbol Mirzo she'riyatining lingvopoetik tahlil qilinishi o'zbek adabiy tilining, jumladan, o'zbek poetik nutqining o'ziga xos jihatlarini, betakror imkoniyatlarini ochib beradi. Bu esa o'z o'rnida o'zbek tilidagi badiiy matnlarning betakror imkoniyatlarining ochib berilishiga zamin yaratadi. "Iqbol she'rlari haddan tashqari murakkab emas. Ularni anglab, tushunib, his etib

tuirasiz. Sizni zavqlantiradi, yurakni ko‘pirtirib, hayajonga soladi. Ammo tizginsiz tuyg‘ularga qanot bag‘ishlagan she‘r sirini toppish qiyin. Chunki shoir shunday bir lahzada borliqni “xayol ko‘zi” bilan ko‘rib, “lazzatga g‘arq” bo‘lib yashaydi. Shoir yopirilib, to‘lib-toshib kelgan xayol in‘omini qo‘g‘ozga ko‘chiradi. Bu ijod jarayoni haqidagi bizning soda tasavvur. Aslida she‘r va shoirlik ijod psixologiyasining eng murakkab mavzusidir. Chunki she‘riy ifodalaridan ba‘zan shoirning o‘zi xayron bo‘ladi”, - deb yozadi prof. Bahodir Karimov Iqbol Mirzo haqida.

Asosiy qism (Main part).

Iqbol Mirzo o‘ziga xos so‘z qo‘llash uslubiga ega bo‘lgan shoirlardan biridir. Uning she‘rlari xalqona ohanglarda bitilganligi bilan boshqa shoirlarning ijod namunalaridan ajralib turadi. Bundan bir necha yil oldin Chingiz Aytmatov Iqbol Mirzo timsolida zamonaviy o‘zbek she‘riyati iqbolini ko‘rayotganligini aytgan edi. Yillar o‘tib buyuk adibning fikrlari o‘z tasdig‘ini topmoqda. Iqbol Mirzoning “Aytgil, do‘stim, nima qildik vatan uchun?”, “Uyg‘onish”, “Agar jannat ko‘kda bo‘lsa”, “Ko‘rmasam bo‘lmas” kabi qator she‘rlari xalq orasida xalqchilligi, o‘ziga xosligi bilan mashhur. Iqbol Mirzo tabiatiga xos bo‘lgan samimiylig, shoir ta‘biri bilan aytganda, qorako‘z, bag‘ri keng, oqibatli xalqni yaxshi ko‘rishidir. Chunki Iqbol Mirzo: “Agar shoir o‘z asarlariga o‘xshamasa, chinakam fojia, aslida – shu...”, - deydi o‘z haqida yozganlarida. Shoir ijodidagi o‘ziga xoslikni ta‘minlashda badiiy matnni lingvopoetik tahlil etishning asosiy tamoyillari sifatida keltiriladigan badiiy aktuallashtirilgan leksik vositalar, ko‘chimning metafora, metonimiya, sinekdoxa, jonlantirish kabi ma‘no turlari alohida ahamiyatga ega. Bunday birliklar badiiy asarning emotsional ekspressivligini ta‘minlovchi tasviriy vositalardan hisoblanadi.

Bunday vositalarning lingvistik va badiiy mohiyatini ochib berish orqali badiiy mazmunning shakllanishi va ifodalanishi mexanizmlarini aniq tasavvur Iqbol Mirzo she‘rlarida badiiy takrorning juda ko‘p qo‘llanishini ta‘kidlab o‘tish joiz.

Yulduz, kechir meni, kechir yulduzim,

Iqboling kulsa ham, baxting kulmadi.

O‘zimga mahliyo bo‘ldimu, o‘zim Ko‘nglingni olishga vaqtim bo‘lmadi.

“Yulduz” deb nomlangan ushbu she‘rda distant holatdagi ot takrorining o‘zgarish bilan qo‘llanishini ko‘ramiz. Birinchi holatda Yulduz so‘zi undalma, ikkinchi holatda esa egalik qo‘shimchasini olgan bo‘lsa-da, so‘z mazmunidan erkalash ma‘nosi anglashiladi. Kechir so‘zi aynan takror bo‘lib, misraning ta‘sir kuchini oshirgan. Har bir takroriy qo‘llangan so‘z o‘zining yakka holda qo‘llanishiga nisbatan yangi ma‘no qirralariga ega bo‘ladi va shu asosda uning semantik doirasi kengayadi, emotsionallik xususiyati ortadi. Bu esa badiiy takrorning nazm va nasrda naqadar muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Ariqlar yuzida yuzardi hovur –

Kumush baliqlarning issiq nafasi.

Qor bosti chinorlar ostiga dovur,

Chinorlar – qorlarning soyasi. (Ariqlar yuzida)

Yoki

Alanglaysan oyoq uchida,

Qiyofalar begona bari,

Bozoryo‘li – qaynoq ko‘chadan

Meni topolmaysan, dilbarim. (Alanglaysan oyoq uchida)

Parchalarda metafora usulida ma‘no ko‘chgan so‘zlar bisyor. Lekin misralardagi kumush baliq, issiq nafas, qaynoq ko‘cha kabi misollarda keltirilgan kumush, qaynoq, issiq sifatlarida aynan sinestetik metafora sodir bo‘lgan. “Kumush” leksemasi odatda “qish” leksemasi bilan ko‘chma ma‘nodagi birlikni hosil qiladi. Ya‘ni, “sovuq qish” m‘anosida. She‘rda keltirilgan “kumush baliq” birligida esa muzlagan baliq ma‘nosi anglashilib, qishning nihoyatda sovuqligiga ishora qiladi. “Qaynoq ko‘cha” birligida esa “gavjum ko‘cha” ma‘nosi ifodalanib, sinestetik metaforani yuzaga keltirgan. Metaforaning ta‘sirida bir qarashda oddiy, jo‘n bo‘lib ko‘ringan misralar badiiy qimmatini, ifodaliligi, ekspressivligi kuchayib, she‘rning jozibasini oshirgan.

Badiiy aktuallashgan leksik vositalar ichida badiiy asarning estetik ta‘sir kuchini oshirishda metonimiyaning ham o‘rni katta. Ma‘lumki, metonimiya deb voqea-hodisa, narsa-buyum o‘rtasidagi o‘zaro yaqinlik va bog‘liqlik asosida ma‘no ko‘chishiga aytiladi. Metonimiya ham qiyosga asoslanadi. Metonimiyada tashqi ko‘rinishi yoki ichki xususiyatlari bilan bir-biriga qandaydir aloqasi bo‘lsa ham, ammo, umuman bir-biridan farq qiluvchi narsalarning belgilari qiyoslanadi va qayta nomlanadi. Iqbol Mirzo o‘z she‘rlarida metonimiya asosida ma‘no ko‘chishi usulidan unumli foydalanadi.

Natijalar va muhokamalar (Results and Discussions).

1. Ijodiy Kontekst va Tarixiy Asos

Iqbol Mirzoning she‘riyati O‘zbekistonning mustaqillik davrida shakllangan bo‘lib, bu davrda milliy o‘zlikni anglash va milliy qadriyatlarni ulug‘lashga alohida e‘tibor berilgan. She‘rlarda tarixiy muammolar, zamonaviylik va milliy qadriyatlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik, o‘zbek xalqining madaniy merosi aks ettiriladi.

2. Vositalar va ularning ahamiyati

Vosita deganda, she‘rda badiiy obraz, ramz yoki ma‘noni ifodalash uchun qo‘llaniladigan til vositalari tushuniladi. Vositalar orqali muallif o‘z fikrini yanada chuqur va ta‘sirchan ifodalaydi.

Iqbol Mirzo she‘riyatida uchraydigan vositalar quyidagicha:

- Metafora: Ijodkor o‘z she‘rlarida metaforalardan keng foydalanadi. Metafora orqali muallif hayotiy hodisalarni, insoniy tuyg‘ularni va ichki dunyoni tasvirlaydi.

- Simvolizm: She‘rlarida tez-tez uchraydigan simvollar, masalan, qushlar, daraxtlar, tabiat hodisalari milliy va umuminsoniy tushunchalarni ifodalaydi.

- Allegoriya: Ba'zi she‘rlarda allegorik obrazlar orqali ijtimoiy muammolar va falsafiy masalalar yoritiladi.

4. Tematik va G‘oyaviy Asos

Iqbol Mirzoning she‘rlari ko‘p qirrali tematikaga ega bo‘lib, quyidagi mavzular yoritiladi:

- Vatanparvarlik: Ona yurtga bo‘lgan muhabbat va sadoqat she‘rlarning asosiy mavzularidan biridir.

- Tabiat tasviri: Tabiat manzaralari orqali muallif inson ruhiy holatini tasvirlaydi va falsafiy mulohazalar qiladi.

- Muhabbat: Romantik va insoniy muhabbat mavzusi ko‘plab she‘rlarda yetakchi o‘rin tutadi.

5. Analitik tahlil

She‘rlar lingvistik va poetik jihatdan tahlil qilinar ekan, quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

- Struktural tahlil: She‘rlarning tuzilishi, qofiya va ritm tizimi tahlil qilinadi.

- Semantik tahlil: Vositalar orqali ifodalanayotgan ma‘no va mazmun tadqiq etiladi.

- Intertekstual tahlil: Iqbol Mirzoning she‘rlari boshqa adabiyotlar bilan qiyoslanadi va umumiyliklar va farqlar aniqlanadi.

Iqbol Mirzo she‘rlari badiiy aktuallashtirgan vositalarning lingvopoetik imkoniyatlarini chuqurroq o‘rganish orqali o‘zbek adabiyotining boyligi va xilma-xilligi yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi.

Xulosa (Conclusion). Xulosa qilib aytish mumkinki, Iqbol Mirzo she‘rlarida badiiy aktuallashtirgan vositalarning lingvopoetik imkoniyatlari juda keng bo‘lib, ular orqali muallif o‘z fikrlarini yanada chuqur va ta‘sirchan ifodalaydi. Metafora, simvolizm va allegoriya kabi vositalar milliy va umuminsoniy tushunchalarni ifodalashda katta rol o‘ynaydi. Fonetik, leksik va sintaktik usullar she‘rlarning ohangdorligini oshirib, ularning emotsional ta‘sirini kuchaytiradi. She‘rlarda vatanparvarlik, tabiat tasviri va muhabbat kabi mavzular yetakchi o‘rin tutadi. Struktural, semantik va intertekstual tahlil usullari orqali she‘rlarning tuzilishi, ma‘nosi va boshqa adabiyotlar bilan bog‘liqligi chuqur o‘rganiladi. Bu tadqiqot Iqbol Mirzo she‘riyatining boyligini ochib berishga xizmat qilib, milliy madaniyatimizning rivojiga munosib hissa qo‘shadi.

REFERENCES

1. Шарафиддинов О. Адабиёт тилдан бошланади // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1986, 5 сентябрь
2. Iqbol Mirzo. Ko‘nglingda nima bor, bilmayman. “Sharq nashriyoti”. Toshkent. 2020-yil
3. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Toshkent, Fan – 2007.
4. Karimov B. Iqboli kulgan ko‘ngil shoiri. Maqola. “Yoshlik” jurnali, 2017-yil, 4-son.
5. Липгарт А.А. Методы лингвопоэтического исследования. М., 1997. -220с.
6. Виноградов В.В. Язык художественного произведения // Вопросы языкознания. 1954. №5. С. 29; С.5-38
7. Qurbonova M., Yo‘ldoshev M. Matn tilshunosligi. Toshkent: Universitet, 2014.
8. Topildiyeva F.R. Farida Afro‘z she‘riyatining lingvopoetik tadqiqi va o‘ziga xos jihatlari. «Contemporary technologies of computational linguistics», 2024, 571-574.